

TARJIMA TURLARI VA YOZMA TARJIMADAGI MUAMMOLAR

Ravshanov Ulug'bek Ravshan o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Tarjima nazaryasi va amaliyoti 2-kurs talabasi

telefonipocox3pro@gmail.com

To'laganov Husniddinbek Mengaliyevich

Termiz Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Tarjima nazaryasi va amaliyoti 2-kurs talabasi

Khusniddinbek7703@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjimaning bir qancha muammolariga yechimni ko'rishimiz mumkin. Tarjima jarayonida yuz beradigan muammolarni misollar bilan ko'rishimiz mumkin va tahlil jarayonida yuz berayotgan muammoga yechimlarni keritib o'tamiz. Maqolada olimlarning fikirlari va ilmiy ishlaridan ushbu sohaga doir mavzuni yoritib berishda foydalanilgan.*

Kalit so'zlar:*tarjima, og'zaki tarjima, yozma tarjima, tarjima turlari.*

MUHOKAMA

Tarjimaningturlargabo'linishme'zonlari

Tarjimashunoslikdaaslnusxatilivatarjimatilidagimaterialningqayshakldaamalgaoshirilis higaqarabtarjimaningturliturlariniajratishmumkin.

Bubirinchitasniflashtirishgaasosbo'luvchiomildir.

Tarjimashunoslikdatarjimaningturlariniularningmazmunivamohiyatidankelibchiqibajratishh amamalgaoshiribkelinmoqda,

undatarjimagaaloqadorharikkalatildagimatnlarningshakliemas,

balkiularningmazmuniyokimohiyatigatayanibtasniflashtiriladi.

L.

S.

Barhudarovaslnusxatilivatarjimatilimatniningqandayshakldaberilishigako'ratarjimaningto'rt asosiyturiniajratadi:

1) og'zaki-og'zaki; 2) yozma-yozma; 3) og'zaki-yozma; 4) yozma-og'zaki.

Butarjimaturlariichidaog'zaki-og'zakitarjima 2 turgabo'linadi:

1) og'zaki izchil tarjima; 2) og'zaki sinxron tarjima. V. N. Komissarovning tarjima tasnifi quyidagicha: 1) badiiy tarjima; 2) informativ tarjima.

G'. M. Xoshimov tasnifi: 1) badiiy tarjima; 2) nobadiiy tarjima.

R. K. Min'yar-Beloruhev tasnifiga ko'ra quyidagi tarjima turlari mavjud:

1) yozma tarjima; 2) sinxron tarjima – og'zaki; 3) izchil tarjima;

4) varaqdan tarjima.

U yana nima tarjima qilinayotganligiga qarab tarjimaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1) badiiy tarjima; 2) ijtimoiy-siyosiy tarjima; 3) ilmiy-tarjimaviy tarjima. Tarjima

jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi.

Yozma tarjima va og'zaki tarjima

Og'zaki izchil tarjima sinxron tarjimadan oraliqdagi tarjima uchun berilgan vaqtlar bilan, qayta tarjima qilish imkoniyati borligi bilan ajralib turadi. Bunday tarjimada tarjimon avvalo notiqni tinglaydi, keyin uni mulohaza qilib, tarjima qiladi. Bu ingliz tilida "consequent translation" deb ataladi.

Yozma-yozma tarjima uzoq tarixga ega. U eng ko'p qo'llaniladigan tarjima turlaridan bo'lib, minglab baidiy asarlar, millionlab hujjatlar va undan ham ko'proq ilmiy texnikaviy adabiyotlarning tarjimasi hisoblanadi. Bu tarjimani amalga oshirish unchalik murakkab extralingvistik shart-sharoitlarni talab qilmaydi, chunki tarjimonga to'laqonli tarjima berish uchun barcha imkoniyatlar berilgan, yetarli vaqt, istalgan sharoit, qayta-qayta tarjima qilish, kim bilandir kengashish, maslahatlashish kabi katta imkoniyatlar berilgan.

Yozma-og'zaki tarjima yozma matnning og'zaki tarjimasi demakdir. Bunday tarjima hayotda ko'p uchrab turadi. Bunga telegrammalar, yo'l-yo'riqlar, xatlar, hujjatlar va hokazolarning tarjimalari misol bo'lishi mumkin.

Og'zaki-yozma tarjima ham tez-tez qo'llanib turadi, masalan, qandaydir og'zaki nutqning yozma tarjimasi, og'zaki suhbatning (muloqotning) yozma tarjimasi misol bo'la oladi. Har bir tarjima turi o'ziga xos ahamiyatga ega.

adabiyotlar Tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, 3. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta.

Tarjima amaliyotini, uning o'ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, prinsip va krnuniyatlarini tarjimashunoslik fani o'rganadi, tarjimonga o'girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliyadabiy an'analarni hisobga olgan holda ish tutishda yordam beradi. 20-asr o'zbek adabiyotida tarjimashunoslik maxsus fan tarmog'i sifatida yuzaga keldi va shakllandi. Cho'lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning 2-yarmidan shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Professor Jumaniyoz Sharipov tadqiqotlariga asosan adabiyotimiz tarixida tarjimaning o'rnini ko'rsatishga bag'ishlangan bo'lsa, professor G'aybullay Salomov asosan zamonaviy tarjimashunoslik masalalari bilan shug'ullandi, tarjima jarayoniga til hamda adabiy an'analarning ta'sirini ko'rsatib berdi. Najmiddin Komilov esa mumtoz janrlarning o'tmish va hozirdagi tarjimalarini tadqiq etdi.

O'zbek tarjimashunosligi asosan adabiy yo'nalishda taraqqiy etgan. Tarjimaning insoniy jihatlari keyinroq — o'zbek tiliga ko'pgina xorijiy tillardan bevosita o'girishga yo'l ochilganidan so'ng rivojlana boshladi.

Tarjima byurosi (TB) bu til tarjimalari bilan shug'ullanuvchi xizmat ko'rsatish sohasidir. Postindustrial jamiyatda TB ni yaratishdan maqsad iste'molchilarning keng doirasiga tarjima xizmatlarini taqdim etish va chet tillarida so'zlashuvchi odamlarning sa'y-harakatlarini va tarjima san'atini birgalikda birlashtirish orqali daromad olishdir. Bunday korxonani yaratish jarayonida nafaqat chet tillari va ona tilini yaxshi hamda mukammal bilish, balki ma'lum bir tilda ifodalangan shaxsning fikrini ushbu tilda so'zlashmaydigan insonlarga aniq va to'g'ri yetkazish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, manba matnning hissiy bo'yoqlarini etkazib bera olish ham muhimdir.

Tarjima agentliklari tomonidan taqdim etiladigan eng keng tarqalgan xizmatlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

yozma tarjima

hujjatlar tarjimasi

Texnik tarjima;

Yuridik tarjima;

Badiiy tarjima:

Adabiy qism sifatida ekviritmik tarjima;

Mahalliyashtirish;

mahalliyashtirish

AutoCAD chizmalarini tarjima qilish

ilmiy va ilmiy-texnikaviy, tibbiy hujjatlar, ma'lumotnomalar va xulosalar tarjimasi.

huquqiy rasmiylashtirishlar bilan bog'liq qo'shimcha xizmatlar, bundan shuni tushunish kerakki, tarjima agentligi quyida sanab o'tilgan jarayonlarni bajarishga vakolatli emas, ammo u vositachi sifatida harakat qilishi mumkin.

vakolatli organlar tomonidan apostil qo'yish

konsullik qonuniylashtirish

hujjatni Adliya vazirligida yoki boshqa vakolatli organlarda qonuniylashtirish

Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik boshqarmasida qonuniylashtirish

tarjimon imzosining haqiqiyiligini notarius tomonidan tasdiqlash

turli xil og'zaki tarjima turlari

Sinxron tarjima

ketma-ket tarjima

shivirlab

gid-tarjimonning ishi

video va audio materiallarni tarjima qilish

maslahat tarjimasi

sud majlislarida tarjima qilish

Qoidaga muvofiq, yuqoridagi faoliyatlarning barchasi ma'lum darajada har qanday tarjima byurosida mavjud. Biroq, har bir byuroda asosiy faoliyat ham mavjud. Tarjimonlik byurosining ixtisoslashuvi geografik joylashuvi, mutaxassislarning mavjudligi va boshqalarga nuanslarga (sezilar-sezilmas farqlarga) bog'liq. Ba'zi byurolar faqat yozma tarjimalarga ixtisoslashgan bo'lsa, boshqalari tarjimonlarga ixtisoslashgan, uchinchi esa hamma soxasida biroz faoliyat olib boradi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, tarjimonlik agentligiga murojaat qilish qanchalik kam bo'lsa, ularning asosiy faoliyati shunchalik professional va yaxshi bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maqolada uchraydigan muammolarga yechimlarni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari maqolada keltirilgan ma'lumotlardan ham foydalanishimiz mumkin.

Maqolada og'zaki tarjimaga doir va yozma tarjimaga doir olimlarning fikrlarini va ilmiy ishlaridan ham foydalandik.

Maqolada tarjima turlari haqida ham ma'lumotlar berib borilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Javliyev, M. O. O. G. L. (2022). "ONA VATAN" KONSEPTINING AFORIZMLAR VA MATNLAR YORDAMIDA TURLI TILLARDA IFODALANISHI. Academic research in educational sciences, 3(11), 514-519.

2. Javliyev, M. O. O. G. L. (2021). "ONA VATAN" KONSEPTINI O'RGANISHDA MAQOL-MATALLAR VA HIKMATLI SO'ZLARNING O'RNI, ULARNING MILLIY-MADANIY KONSEPTUAL BELGILARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 716-722.

3. <https://fayllar.org/mavzu-tarjima-turlari.html>

4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima>

5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarjima_agentligi

6. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҶАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.

7. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҶАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.

8. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.

9. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.

10. Мамаджонов, Р. (2023). "VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб

муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).

11. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

12. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.

MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg 'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg 'ona davlat universiteti o'qituvchisi OA Tursunov–Farg 'ona politexnika instituti akademik litsey o'quvchisi. FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.